



O'ZBEK XALQI MILLIY-AXLOQIY MEROSIDA HARBIY VATANPARVARLIK G'OYALARI

Hayitboyeva Dilnoza Ne'mat qizi

O'zMU talabasi

hayitboyeva03@gmail.com

97-120-66-61

Annotation: *This article talks about the bravery of the great commander who was born and grew up in our motherland, who sacrificed his life for it, and the rulers of the kingdom, who left an indelible mark in history.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о храбрости великого полководца, родившегося и выросшего на нашей Родине, отдавшего за нее свою жизнь, и правителей королевства, оставивших неизгладимый след в истории.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona diyorimizda tug'ilib, kamolga yetgan, uning uchun jon fido qilgan buyuk sarkarda, saltanat hukmdorlarining tarixda o'chmas iz qoldirgan jasoratlari haqida so'z boradi.*

Key words: *patriotism, great figures, loyalty to the Motherland, national heritage.*

Ключевые слова: *патриотизм, великие деятели, верность Родине, национальное достояние.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, buyuk siymolar, Vatanga sadoqat, milliy meros.*

"...qurolli kuchlar faoliyatining ochiq - oshkoraligini ta'minlash, Vatan taqdiri, yurt tinchligi va himoyasi yo'lida bor salohiyati bilan mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni birlashtirish, qurolli kuchlarimizdan g'urur, harbiy xizmatga nisbatan xurmat tuyg'ularini yanada kuchaytirish zarur."

Shavkat Mirziyoyev

Biz yoshlarni vatanparvarlikka yetaklaydigan manbalarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Masalan Alpomish, Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur va shu kabi insonlarning harbiy vatanparvarligi tahsinga loyiq, albatta. Milliy merosimiz bo'lmish "Alpomish" dostonida Alpomish bu bir pahlavon vatanini, qavmini, oilasini asrab qolish uchun qo'lidan kelgancha harakat qilgani, oilalar, qavmlar qayta birlashishi, hamda sevgan yoriga yetmoqlik uchun Oybarchinning barcha qo'ygan shartlarini jasorat ila bajargani, uning nafaqat harbiy jasorati balki ma'naviy jasorati ham biz yoshlarga katta o'rnak bo'lyapti.

Yana bir siymo To'maris haqida gap ketganda, bunday jasoratga ega bo'lish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Chunki uning harbiy vatanparvarligiga, harbiy va ma'naviy jasoratiga butun dunyo qoyil qolgan desam adashmayman. Nafaqat o'g'lining qasдини olish, balki butun xalqini bosqinchilardan qutqarish uchun ayol boshi bilan qo'shiniga boshchilik qilib, juda katta jasorat ko'rsatgan.



Bundan tashqari shiroq siymosini ko'z o'ngimizga keltirganimizda jonini qurbon qilib bo'lsa-da, butun bir xalqni asrab qolish uchun harbiy ayyorlik qo'llab butun bir qo'shinni bir o'zi halok bo'lsada, ularni ham qirib yuborganligiga tarix guvoh. Bunday harbiy vatanparvarlik hissini boshqa siymolar kabi Shiroqdan ham olishimiz mumkin.

Jaloliddin Manguberdi, bunday vatanparvar shaxsni xotirlaganimizda yoki uning tarixini o'qiganimizda vatanga bo'lgan muhabbatimiz yanada oshaveradi. Chunki bu shaxsning ota merosi bo'lmish vatanini qutqarish uchun qilgan sa'y-harakatlari hattoki mo'gullar boshi Chingizxonni ham hayron qoldirgan va uning Jaloliddinning Sind daryosidan otliqlari ila kechib o'tganida o'g'illariga qarata "haqiqiy ota-o'gil mana shunday bo'ladi" deb ularni o'ldirmoqchi bo'lganlarni to'xtatib qoladi.

Temuriylar sulolasining asosiy vakili, sulola asoschisi, buyuk sarkarda Amir Temur yuqoridagi siymolardan harbiy vatanparvarlik borasida ortiq bo'lsa bordirki, ammo kam emas. Sohibqiron mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida O'zbekistonda davlatchilikning yuksalishida muhim o'rin tutadi. Chunki uning harbiy taktikalari, ma'naviy dunyoqarashi juda juda baland edi. Uning hayotlik davridayoq harbiy san'ati va davlat boshqaruviga bag'ishlangan o'zbek xalqi milliy axloqiy meroslaridan biri bo'lmish "Temur tuzuklari" asari esa bunga yorqin dalil bo'la oladi. Amir Temurning "... davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim", "Kuch adolatdadur" degan so'zlari uning mamlakatni aql-zakovat va adolat bilan boshqarganligidan vatanini, xalqini o'ylaganligidan guvohlik beradi. Shu tariqa Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqarish va harbiy sohada o'ziga xos usul yaratib, shu asosda barpo qilgan davlati bilan dunyoni lol qoldirdi. Tarixiy manbalarda Amir Temur nomi Sohibqiron nomi bilan bir qatorda «Sohibi jahon» hamda «Sohibi adl» - «Adolat sohibi» nomlari bilan ulug'lanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ("sher") - temuriylar avlodi bo'lmish bu shaxs butun harbiy va ma'naviy jasoratini ko'rsatgan. Bobur o'z sulolasiga ham asos solgan. Albatta bu sulola vatanimizda emas balki Hindistonda bo'lib, uning oilasi ko'z o'ngida bo'lsada Bobur vatan sog'inchi ila dunyodan o'tgan. Bobur yoshligidan zabardast, kuchli inson bolgan. Hattoki mashq paytida minoraning eng baland yeriga chiqib ikkita askarni qo'ltig'ida siqqan holicha mashq qilgan. U bobokaloni Amir Temur singari harbiy san'atni puxta o'rgangan edi, Bobur vatanini, xalqini, bosqinchilardan himoya qilib bir necha bor qo'li baland keldi va ota meros taxtni egalladi. Biroq bosqinchilar sonining Bobur qo'shini sonidan bir necha baravar ko'pligi sabab ulardan yengilib ular qo'ygan shartga ko'nishga, ya'ni, o'z vatani bo'lmish Andijonni tark etishga majbur bo'ladi. U dastlab Kobulga borib joylashadi va undan so'ng Hindistonga yurish qilib u yerda o'z hukmdorligini o'rnatadi. U yerdagi ayrim rasm rusmlarga (eri o'lganda yosh kelinni tiriklayin olovda yoqish) o'zgartirish kiritdi va u yerdagi tub yerlik aholini o'z xalqi deb bilib umrini oxirigacha ularga birinchi o'rinda harbiy vatanparvarligini, shu bilan birga, xalqparvarligini ko'rsatib ular qalbidan munosib o'rin egalladi. Bobur bularning barini milliy axloqiy merosimiz bo'lmish "Boburnoma" asarida aks ettirgan.



Harbiy vatanparvarlik g'oyalarini biz yoshlar ongiga singdirishni bu asarlar yoki bu qahramonlarsiz amalga oshirish juda murakkab. Bugungi kunda ham bunday harbiy vatanparvar bobokalonlarimiz davomchilari yetishib chiqyapti. Vatani uchun xalqi, uchun qanchadan-qancha mard yigit-qizlarimiz o'z jonini xatarga qo'ygan holda bor kuchi bilan yurtimizga xizmat qilmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

- Yoshlarni milliy g'oya va O'zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

- Qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

- Milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushuncha hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

- Yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- Jangovar harakatlarga moslashish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

- O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoiy bo'lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar bilan yoshlar ongiga singdirib borish.

Bularning bari yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qo'yilgan maqsad va vazifalar hisoblanadi.

Shunday ekan biz yoshlar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shiroq, To'maris singari xalqimiz uchun vatanimiz uchun kerak bolsa jonimizni ham qurbon qilishga tayyor turmog'imiz darkor. Yuqorida aytib o'tilgan barcha o'zbek milliy axloqiy meroslarimiz o'ylaymizki barchamizning ongimizda harbiy vatanparvarlik g'oyalarini uyg'otmay qo'ymaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Temur tuzuklari, Toshkent, 1991 yil



2. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar", 2013.
3. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati - T.: Akademiya, 2007.
4. B. X. Raximov "Talim tizimida bo'lajak o'qituvchi shaxsning kasb madaniyati" Samarqand., 1996-y
5. Dzhuraev R. K., Karakhanova L. M. Model of the organization of research activities of 10th grade students in teaching physics and biology //International journal of discourse on Innovation, integration and education.-2021
6. ДЖУРАЕВ Р. Х., КАРАХАНОВА Л. М. Модель организации исследовательской деятельности учащихся 10 классов при преподавании физики и биологии //International journal of discourse on Innovation, integration and education.-2021
7. Musokhonovna K. L. ICT-As a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.-2021.-Т. 11.- No. 10.-С.
8. Safarova R. G. va boshqalar. Ukuvchi-yoshlarni ommaviy madaniyat hurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari. 2017 yil.
9. Hayitboyeva, D., & Shaxobiddinova, S. (2023). EKOTURIZM TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(5 Part 2), 101-104.
10. Hayitboyeva, D., & Shaxobiddinova, S. (2023). EKOTURIZM TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(5 Part 4), 107-110.
11. Shaxobiddinova, S. M. Q., & Hayitboyeva, D. N. M. Q. (2022). LINGVOKULTUROLOGIK TERMINLAR LUG'ATINING NAZARIY ASOSLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 1338-1343.
12. Shaxobiddinova, S. M., & Ne'mat qizi Hayitboyeva, D. LINGVOKULTUROLOGIK TERMINLAR LUG'ATINING NAZARIY ASOSLARI.
13. Hayitboyeva, D., & Shakhobiddinova, S. (2023). TOURISM ECONOMICS AND MANAGEMENT. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 279-283.
14. Hayitboyeva, D., & Shakhobiddinova, S. (2023). SPECIFIC FUNCTIONS OF THE MODERN TOURIST MARKET. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 275-278.
15. Jumanazarova, Hayitboyeva H. D. (2023). ZAMONAVIY DUNYODA FRANSUZ TILI.
16. Shaxobiddinova, S., & Hayitboyeva, D. (2022). FRENCH NATIONAL CULTURAL EXPRESSIONS. *Science and Innovation*, 1(2), 186-190.